

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.A.Abduraxmonov	
Adabiy asardagi nurning xususiyatlari va funksiyalari (O'zbek lirikasi namunda).....	460
A.B.Kosimova	
O'zbek adabiyotida hikoya va drabllar	469
	TILSHUNOSLIK
M.Y.Mamajonov	
Muloqotni boshqarishda lisoniy va nolisoniy vositalarning o'rni	473
R.M.Shukurov, G.S.Jo'raboyeva	
Farg'ona viloyati toponimlarining sotsiolingvistik xususiyatlari	477
Z.V.Alimova	
Navoiyning "Saddi iskandariy" dostonidagi "Haroson" so'zi va uning morfologik belgilari xususida	483
F.X.Qosimova	
O'zbek tilshunosligida tibbiy terminologiya bo'yicha tadqiqotlar: sifat va miqdor tahlili.....	488
A.A.Ergashev	
Etnotoponimlar tadqiqi	496
H.Sh.Radjabova	
Terminologik lug'atlar tadqiqiga doir.....	502
S.A.Jabborova	
Morphological and syntactic analysis of the structure of medical terminology in the English and Uzbek languages.....	507
Sh.R.Amonturdiyeva	
Diniy uslub shakllanishining antropotsentrik va kognitiv asoslari	511
D.I.Mirzayeva	
Tillardagi turg'un o'xshatishlarning umumlingvistik statusi.....	517
X.F.Xaydarova	
Taqlid so'zlarning statistik tahlili (O'zbek tilining ikki va besh jildli izohli lug'atlari misolida).....	520
M.A.Hojiyeva	
Filolog mutaxassislarda terminologik kompetentlikni rivojlantirishning ahamiyati.....	524
I.A.Egamberdiyeva	
Metafora - til, madaniyat va ma'naviyat ko'zgusi	527
D.I.Mirzayeva, X.R.Mirzayeva	
O'zbek va Ingliz tillaridagi frazeologik birliklarda o'lchov so'zlarning qo'llanilishi.....	531
Z.Sh.Ashurova	
Badiiy matnning lingvopoetik xususiyatlari va muallif individual uslubi talqini	535
I.T.Hojaliyev, G.S.A'zamova	
Adekvatlik va uni ta'minlovchi nolisoniy va lisoniy omillar	539
Z.M.Sobirova	
Til va ong munosabati L.S.Vigotskiy psixologik talqinida.....	545
V.A.Vositov	
So'z o'zlashtirish tillararo aloqani yuzaga keltiruvchi sotsiolingvistik omil sifatida	550
M.T.Abdupattoyev, X.P.Shodmonov	
Konvergensiya va uning sintaktik-stilistik funksiyasi	557
D.I.Khodjaeva	
Lingvodidaktika va metodika terminlari tavsifi, farqli jihatlari.....	562
O.M.Yusupova	
Ingliz va O'zbek maishiy ertaklaridagi asosiy tushunchalarni ifodalovchi leksemalarning semantik tahlili	567
M.V.Nasridinov	
"Maqsad" konsepti maydonida yotuvchi ingliz tilidagi morfemalarning qiyosiy tadqiqi.....	572
M.O.Batirkhanova	
Lexicographic analysis of somatisms in different languages	577
M.U.Mamadjanova	
Interpretation of epithetic compounds in linguistics	582
M.V.Nasridinov	
Ingliz va O'zbek tillarida "Maqsad" konseptining morfologik struktural, semantik tahlili	586
M.Y.Madiyeva	



UO'K: 811.512.133.43

NAVOIYNING “SADDI ISKANDARIY” DOSTONIDAGI “HAROSON” SO‘ZI VA UNING MORFOLOGIK BELGILARI XUSUSIDA**ABOUT THE WORD “HAROSON” AND IT’S MORPHOLOGICAL SIGNS IN NAVOI’S EPIC “SADDI ISKANDARI”****О СЛОВЕ «ХАРОСОН» И ЕГО MORFOLOGICHESKIX PRIZNAKAX EPOSA NAVOI «САДДИ ИСКАНДАРИ»**Alimova Zarifa Vaxobovna 

Farg'ona davlat universiteti tilshunoslik kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

Mazkur maqolada Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” asarida shoir tomonidan qo'llanilgan forscha “haroson” so'zi, uning ravish turkumiga oid ekanligi, uning gapdagi o'rnini, morfologik belgilari xususida so'z boradi. Ravishlar haqida jahon va o'zbek tilshunoslarning ilmiy qarashlari keltirilgan. Xususan, o'zbek tiliga fors-tojik tilining ta'siri yuzasidan o'zbek va jahon tilshunoslarning fikrlari tahlil qilinib, bir grammatik kategoriyadagi leksemaning o'ziga xos morfologik belgilari izohlangan. Jumladan, haroson leksemasi haros otiga ravish hamda sifatdosh yasovchi –on qo'shimchasi qo'shilishi orqali yasalganligi, gapda ot, fe'l hamda sifatdosh vazifasida kelishi mumkinligi asardan olingan misollar orqali ochib berilgan.

Аннотация

В данной статье речь пойдет о персидском слове “харосон”, используемом поэтом в произведении Алишера Навои “Садди Александрия”, о его принадлежности к категории Равиш, о его роли в предложении, о морфологических признаках. О наречиях представлены научные взгляды мировых и узбекских лингвистов. В частности, были проанализированы мнения узбекских и мировых лингвистов о влиянии персидско-таджикского языка на узбекский язык и объяснены специфические морфологические признаки лексемы одной грамматической категории. В частности, на примерах из работы показано, что лексема *haroson* образована путем добавления наречия к существительному *haros*, а также наречия –on, которое может выступать в качестве существительного, глагола и прилагательного в предложении.

Abstract

This article will focus on the Persian word “kharoson”, used by the poet in Alisher Navoi's work “Saddi Alexandria”, about its belonging to the category of Ravish, about its role in the sentence, about morphological features. The scientific views of world and Uzbek linguists on adverbs are presented. In particular, the opinions of Uzbek and world linguists on the influence of the Persian-Tajik language on the Uzbek language were analyzed and the specific morphological features of the lexeme of one grammatical category were explained. In particular, the examples from the work show that the *haroson* lexeme is formed by adding an adverb to the noun *haros*, as well as the adverb –on, which can act as a noun, verb and adjective in a sentence.

Kalit so'zlar: leksema, grammatik kategoriya, ot, fe'l, sifatdosh, o'tgan zamon sifatdoshi, hozirgi zamon sifatdoshi, daraja kategoriyasi, mustaqil so'z turkumi.

Ключевые слова: лексема, грамматическая категория, существительное, глагол, прилагательное, причастие прошедшего времени, причастие настоящего времени, категория степени, самостоятельная группа слов.

Key words: lexeme, grammatical category, noun, verb, adjective, past participle, present participle, degree category, independent word group.

KIRISH

O'zbek adabiyoti va adabiy tili hozirga qadar Alisher Navoiyning boy adabiy merosi asosida rivoj topdi. Xususan, Navoiyning birgina “Muhokamat ul-lug'atayn” asari hozirgi o'zbek tilining taraqqiy topishida muhim asos bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Buyuk shoirning ijodida badiiy so'zga munosabat, so'z qo'llash mahorati shu qadar o'z aksini topganki, uni ta'riflashga til o'z.

Navoiy tufayli XV asr turkiy adabiy tilining leksik boyliklari va uslubiy imkoniyatlari yanada oshdi [7,639].

«Saddi Iskandariy» dostonining ilmiy-tanqidiy matni 60-yillar boshida o'zbek matnshunos olimi P.Shamsiyev tomonidan tuzilgan edi. Ammo qandaydir sabablarga ko'ra, matn chop etilmagan. Matnda so'z boshi va ilmiy izohlar mavjud emas. Hozirda mazkur matn O'zbekiston Fanlar akademiyasining Hamid Sulaymonov nomidagi Qo'lyozmalar institutining arxivida saqlanadi. Keyingi yillarda navoiyshunoslik fani Alisher Navoiy asarlarining shoir hayotligida va uning vafotidan birmuncha vaqt o'tgach ko'chirilgan qadimiy, nodir nusxalar bilan boyidi. Jumladan, Angliyaning Bodleyan kutubxonasida saqlanayotgan Badiuzzamon uchun ko'chirilgan miniatyurali «Xamsa» nusxasi Abdujamil nusxasidan «yosh» jihatdan faqat olti oygagina farq qiladi va u Navoiyning bevosita homiyiligi ostida ko'chirilgan. Turkiyaning «To'pqopi» muzeyida saqlanayotgan Istanbul kulliyoti ham Navoiyning nazari tushgan tabarruk nusxalardandir. Shuningdek, Parij kulliyoti, Qo'lyozmalar instituti fondida saqlanayotgan XVI asr «Xamsa»si ham shu davrning nodir yozma yodgorligi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Ana shu qo'lyozmalarni manbashunoslik va matnshunoslik nuqtai nazaridan atroflicha o'rganib ilmiy istifodaga olib kirish hamda P.Shamsiyev matnlari tuzilgandan buyon o'tgan chorak asrdan ziyod vaqtni nazarda tutib Qo'lyozmalar instituti ma'muriyati va ilmiy sovetining maslahati bilan filologiya fanlari nomzodi Mavjuda Hamidova dostonning mukammal ilmiy-tanqidiy matnini tuzib chiqdi. Matnga yuqorida zikr etilgan, hozircha dunyo fondlarida eng qadimiy deb hisoblangan XV—XVI asrdagi olti qo'lyozma va P. Shamsiyev matnlari — jami yetti qo'lyozma asos bo'lgan [1, 470].

ADBIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'zbek tiliga fors-tojik tilining tiliga ta'siri yuzasidan K.Yusupov, H.G'ulomov, K.Rahmonberdiyev, H.Ne'matov, A.Berdialiyev, R.Xidirov, N.G'aniyeva, M.Zokirov, R.Rajabova, B.Jabborov, A.Yu.Fomin, S.Ashirboyev, S.Zokirova, Sh.Jo'rayev kabi tilshunos olimlar ilmiy izlanishlar olib borganlar. Navoiy ijodini o'rganishda S.G'aniyeva, B.Abdullayev, Yo.Is'hoqov, I.Haqqul, A.Hayitmetov, A.Qayumov, H.Jo'rayev, A.Hojimuhamedov kabi adabiyotshunos olimlarning xizmatlari beqiyos. O'zbek tilshunoslaridan B.Bafoyev, A.Nishonov, E.Umarov, S.Ashirboyev, A.Rustamov, M.Qodirov, F.Hayitmetov, N.Umarova, M.Akbarova, D.Abdualiyeva, N.Abdualiyeva kabi olimlarning ilmiy izlanishlari tahsinga loyiq.

Tilshunos olim N.Umarova ta'kidlaganidek, “Alisher Navoiy tilining so'z boyligi 26 mingdan ortiq bo'lib, shoir asarlari asosida tuzilgan izohli lug'atlarda barcha sohaga oid so'zlarni uchratish mumkin. 1972-yilda tuzilgan I jildlik “Navoiy asarlari lug'ati”da shoir asarlarida qo'llangan 100 dan ortiq rang-tus bildiruvchi sifatning ma'nosi izohlangan” [11,10].

Mazkur maqolada Navoiyning “Saddi Iskandariy” asarida uchragan forsiy “haroson” so'zi va uning morfologik belgilari haqida so'z yuritimiz.

Haroson هرسان ravish turkumiga oid leksema bo'lib, *qo'rqqancha*, *vahimaga tushgancha* kabi ma'nolarga ega. ANATIL (Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati)da mazkur so'z *qo'rqqan*, ya'ni sifatdosh vazifasida kelishi izohlangan bo'lib, *haroson bo'lmoq*, *haroson ermoq* fe'llari *qo'rqmoq*, *cho'chimoq*, *vahimaga tushmoq* kabi ma'nolarni ifodalashiga ham misollar keltirilgan (ANATIL, 4-jild, 165-bet). Demak, *haroson* leksemasi nafaqat gapda ravish, balki sifatdosh hamda fe'l vazifasini ham bajarishi mumkin. *Haroson* leksemasi *haros* otiga ravish hamda sifatdosh yasovchi –on qo'shimchasi qo'shilishi orqali yasalgan.

Ma'lumki, fors-tojik tilida sifatdoshlar ikki turli bo'ladi: o'tgan zamon sifatdoshi va hozirgi zamon sifatdoshi. O'tgan zamon sifatdoshi fe'lning o'tgan zamon asosiga –e affiksi qo'shilishi natijasida hosil qilinadi. Masalan: رفته rafte – brogan فهمیده fahmide – tushungan, آغاز شده log'oz sho'de – boshlangan, اصلاح شده esloh sho'de – tuzatilgan va b. Maqolada izohlanayotgan *haroson* so'zi hozirgi zamon sifatdoshi bo'lib, uning aynan tarjimasini *qo'rqayotgan*, *cho'chiyotgan*, *vahimaga tushayotgan* demakdir. Forsiy adabiyotlarda *haroson* so'zi sifatdoshdan yasalgan ravish sifatida ham qaraladi. Xususan, A.A.Rizayeva fors tilida leksik yo'l bilan hosil bo'lgan ravishlar qatorida *haroson* (*qo'rquv bilan*) so'zini ham keltirib, bunday ravishlar fors tilida bir kategoriyadan boshqa bir kategoriyaga o'tuvchi (adverbial) so'zlar ekanligini, o'tgan zamon va hozirgi zamon sifatdoshlari, ravishdoshlar ham gapda ravish vazifasida kelishi mumkinligini ta'kidlaydi. Masalan: گریزان go'rizon – chopgancha, chopib; هرسان haroson – qo'rqqancha, qo'rquv bilan; یغیران geryon – yig'lagancha, yig'lab va hokazo [6,5].

TILSHUNOSLIK

Fors tilida ravishlarning ishlatilishi va yasashini har tomonlama yoritishda sharqshunos olimlardan N.Beryozin, Ye.E.Bertels, L.Jirkov, V.A.Jukovskiy, R.G.Levkovskaya, Ye.N.Sharova, A.B.Mamed-zoda, I.K.Ovchinnikova, A.A.Rizayeva, Yu.A.Rubinchik, N.B.Xrisanov, eron tilshunoslaridan Muhammad Ja'far Islomiy, Mahmud Ebtehoj, Hayyompur va boshqalarning xizmatlari katta.

NATIJARLAR VA MUHOKAMA

Fors tilida ravish boshqa so'z turkumlari singari o'zbek tili grammatik qonunlariga juda mos tushadi. N.Beryozinning ta'kidlashicha, fors tilidagi ravishning o'ziga xos morfologik belgilaridan biri uning o'zgarimas ekanligidir[3,75-79]. V.A.Jukovskiyning fikricha, ravish biror so'z bilan bog'lanib, birikma hosil qilganda u o'z shaklini o'zgartirmaydi, hech qanday so'z o'zgartiruvchi affiks qabul qilmaydi[4,34]. Ravishning yana bir morfologik belgisi uning o'ziga xos qo'shimchalarga ega bo'lishidir. Fors tilida ravishlar yasashida prefikslar, affikslar keng ko'lamda ishlatiladi. Yu.Rubinchikning qayd etishicha, predloglardan *bo*, *be*, *dar*, *az*, prefikslardan *no*, *bi*, affikslardan – *on*, *-ki*, *-ona*, *-ho*, *-goh* va boshqalar asosida hosil bo'lgan ravishlar murakkab ravishlar deb nomlanadi[5,830]. Fors tili grammatikasi bo'yicha qilingan ishlarning ba'zi bir mualliflari ravishni mustaqil so'z turkumi deb hisoblamaydilar. Vaholanki, hozirgi zamon fors tilida ravish mustaqil so'z turkumi hisoblanadi va o'zining semantikasiga, morfologik va sintaktik xususiyatlariga egadir.

O'zbek tilida ravish mustaqil so'z turkumlaridan biri; harakat va holatning belgisini, shuningdek, belgining belgisini bildiradi. Ravishlarning quyidagi ma'noviy turlari mavjud: holat (tarz) ravishlari (tez, sekin, piyoda kabi); o'rin ravishlari (uzoqda, yaqindan, pastda kabi); payt ravishlari (hozir, kecha, bugun kabi); daraja-miqdor ravishlari (ancha, sal, kam kabi); maqsad ravishlari (ataylab, jo'rttaga kabi); sabab ravishlari (noiloj, ilojsiz, chorasizlikdan kabi). Payt, o'rin va maqsad ravishlaridan boshqa barcha ravishlarni, eng umumiy xususiyatlariga ko'ra, bir turga kiritish va ularni holat (tarz) ravishlari deb atash mumkin. Ravish mustaqil so'z turkumi sifatida quyidagi morfologik xususiyatlar bilan ajralib turadi:

1) daraja kategoriyasiga ega: *tez*, *ko'p* (oddiy daraja) – *tezroq*, *ko'proq* (qiyosiy daraja) – *eng tez*, *juda ko'p* (orttirma daraja) kabi;

2) o'zgarimas bo'lib, ko'pincha fe'llarga bog'lanib keladi: *So'rida qat-qat duxoba ko'rpachalar ustma-ust to'shalgan edi*;

3) Ravish ayrim o'rinlarda sifat va otga bog'lanib kelishi ham mumkin. Bunday hollarda ravish belgining belgisini yoki predmetning belgisini emas, o'zi bog'lanib kelgan sifat yoxud otdan anglashilgan harakatlarning belgisini bildiradi: *Kecha havo juda sovuq edi. U hozir beqiyos va tasavvur qilib bo'lmas baxtiyor edi*;

4) Ravish yasovchi muxsus qo'shimchalarga ega: *-cha*, *-ona*, *-larcha*, *-lab* va boshqa;

5) turlanmaydi va tuslanmaydi (otlashish hollari bundan mustasno).

Alisher Navoiy asarlaridagi *haroson* ravishi shoir tomonidan ko'p qo'llangan leksemalardandir. Xususan, "Saddi Iskandariy dostonida mazkur so'z to'qqiz o'rinda qo'llangan. Dostonda keltirilgan ushbu so'z morfologik jihatdan turli so'z turkumlari vazifasini bajargan [8, 381].

Bu ishdinki tab'im haroson erur,

Agar Tengri lutf etsa oson erur(Saddi Iskandariy, 25-bet).

Ma'nosi: *Bu ishdan ko'nglim qanchalik tahlkaga tushsa, oxir-oqibat agar Tangrim lutf-marhamat qilsa, ish yengil ko'chishiga aminman* (Saddi Iskandariy, nasriy bayon, 29-bet). Bu baytning izohidan ko'rinadiki, *haroson* so'zi asosida "haroson ermoq" - *qo'rqmoq*, *vahimaga tushmoq*, *tahlkaga tushmoq* fe'li yasalgan.

ANATILda ushbu so'z ishtirokida "Saddi Iskandariy"dan quyidagi baytlar ham keltirilgan:

Muning vahshatig'a chub bor ittilo',

Haroson kerak erdi mundin tibo'(Saddi Iskandariy, 182-bet).

Ma'nosi: *Buning dahshatini ko'rib-bilib turgan odamning tabiati nega bundan cho'chimaydi?* (Saddi Iskandariy, nasriy bayon, 29-bet). Mazkur baytdan ayon bo'lishicha, *haroson* so'zi *cho'chimoq* deya izohlanadi. Asarning nasriy bayonida ushbu so'z fe'l vazifasini bajargan bo'lsa-da, uning nazmiy bayonida "qo'rquv, qo'rqish" deya tarjima qilinib, ot bo'lib kelgani yaqqol ko'zga tashlanadi.

Qalamni chu kog'aznigor ayladim,

Ko'p a'jubalar oshkor ayladim.

Ne g'oyatki tab'im haroson edi,

Yuz oncha bitir vaqt oson edi (Saddi Iskandariy, 43-bet).

Ma'nosi: *Ko'nglimda "yoza olamanmi – yo'qmi..." degan qo'rquvlar tug'yon urib yotar edi, qalamim bita boshlagach, ish men o'ylagandan yuzlarcha marta oson ko'cha boshladi*(Saddi Iskandariy, nasriy bayon, 29-bet). Yuqoridagi to'rtlikda uchragan *haroson* so'zi nasriy bayonda izohlanganidek ot ("qo'rquv") emas, balki fe'l vazifasida kelgan (*haroson ermoq*).

Nedin shoh tab'i haroson erur

Ki, bu qullar ollida oson erur (Saddi Iskandariy, 210-bet).

Ma'nosi: "...Shohning **ta'blari** bundan **xira bo'lmasin**, bu narsani bartaraf etish bu qullaringiz uchun uncha qiyin emas" (Saddi Iskandariy, nasriy bayon, 193-bet). Baytning nasriy bayonidan ko'rinadiki, *haroson erur* fe'li *ta'bi xira bo'lmoq* ma'nosida izohlanmoqda. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, tab' طبع so'zining yozilishida tutuq belgisi, ya'ni ayn harfi so'z oxirida yoziladi. O'zbek tiliga o'zlashgan bu leksema tovush o'rni almashganiga guvoh bo'lamiz: tab' طبع – ta'b.طعب.

Yigitlikta ish kasbi osondurur,

Nedin tab'i andin harosondurur (Saddi Iskandariy, 230-bet).

Ma'nosi: *Yigit kishiga ishlash va kasb-hunar qilish og'ir bo'lmaydi-yu, ammo nima uchun yoshlar mehnat qilishdan qochadilar?* (Saddi Iskandariy, nasriy bayon, 211-bet). Fikrimizcha, mazkur baytning nasriy bayoni biroz noto'g'ri izohlangan. Ya'ni, *haroson* so'zi *qochmoq* ma'nosida emas, *qo'rqmoq* ma'nosida izohlanganda maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Yana qichqurur erdi istab g'anim,

Vale andin el ko'nglida erdi bim.

Haroson bo'lub xalq maydonidin,

Kecha olmayin bejihat jonidin (Saddi Iskandariy, 347-bet).

Ma'nosi: *U (dev) yana g'anim talab qilib qichqirar, ammo odamlarda unga qarshi borishga yurak qolmagan edi. Hamma ham maydonga tushib, u bilan kurashishga xavflar, bekordan bekorga jonidan kechishga hech kim botinmasdi* (Saddi Iskandariy, nasriy bayon, 322-bet). O'TILda *xavflanmoq* fe'li "*biror narsadan xavfga tushmoq, qo'rqmoq, xavotirlanmoq*" deya izohlangan. Shu ma'noda *haroson bo'lmoq* fe'lga ushbu nasriy izohdagi ma'no mos kelishi tabiiy.

Haroson kelib, yonibon shodmon,

Kema sayridin tinmayin bir zamon (Saddi Iskandariy, 408-bet).

Ma'nosi: *Qo'rqa-pisa borilgan safardan yo'lovchilar shodlik bilan qaytmoqda, kemalar esa sira to'xtamay yo'l bosmoqda edi* (Saddi Iskandariy, nasriy bayon, 378-bet). Mazkur baytda *haroson* so'zi ravish vasifasida (*qo'rqa-pisa*) kelganligi uning nasriy bayonidan ham ko'rinib turibdi.

Jahondin necha el haroson erur,

Aning ranjidan maxlas oson erur» (Saddi Iskandariy, 414-bet).

Ma'nosi: *Kimki dunyoga hirs qo'ymasa, jahonning ranj-mashaqqatidan xalos topishi osonroqdir* (Saddi Iskandariy, nasriy bayon, 384-bet). Mazkur izohdan ko'rinadiki, *haroson* so'zi o'z ma'nosida emas, balki ko'chma ma'noda qo'llanilmoqda. Ya'ni, baytning *Jahondin necha el haroson erur* qismi "odamlar mol-mulkni to'plashdan o'zlarini tiysalar" ma'nosida kelgani *haroson* so'zining ko'chma ma'no kasb etayotganini bildirmoqda.

Doston nihoyasida tarixiy va afsonaviy shaxslar haqidagi izohlar ham keltririlgan. Jumladan, Sosoniylar tabaqasiga mansub bo'lgan to'qqizinchi hukmdor Hurmuz ibn Narsi haqida shunday yozilgan: *Hurmuz ibn Narsi sosoniy podshohlaridan Narsi binni Bahromning o'g'li. "Tarixi muluki Ajam"da Hurmuz binni Narsi deb berilgan va u quyidagicha xarakterlangan: "Ul bag'oyat mutakabbir kishi erdi. Saltanatidin burun bu sifotin el bilib, andin haroson erdilar... Bir kun g'oyat xudpisanlig'idin so'rdikim, maning af'ol va sifotimg'a ne nima keraklikdur? Hakim mundoq javob berdikim, xaloyiqqa hokim va sohibi ixtiyor bo'lg'ondek o'z nafsing'a ham hokim va sohibi ixtiyor bo'lmoq sanga keraklikdur. Ul bu so'zdin, chun zoti javhari bor erdi, g'aflat uyqusidin seskanib, o'z qiligi'tegrasiga uyruhub, mustahsan avtor tutub, marzi axloq pesha qildi... Va Hurmuzning zamoni yetti yil yo to'qquz yil erdi"* [10, 32].

Podshoh haqida keltirilgan izohdan ko'rinadiki, Hurmuz ibn Narsi nihoyatda kibrli inson bo'lgani bois, saroy ahli undan qo'rqar edilar (*andin haroson erdilar*). *Haroson* so'zi ushbu jumlada *haroson erdilar – qo'qar edilar* ma'nosini ifodalab, fe'l vazifasini bajargan.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, barcha so'z turkumlari kabi ravish ham fors tilida o'zgarmas va mustaqildir. Ravishlarning gapdagi morfologik belgilari Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonida ham kuzatiladi. Alisher Navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida boshqa turkumdagi so'zlar qatorida ravishlarga ham to'xtalib, bunday so'zlarning nutqni boyitishdagi rolini chuqur tahlil qilib bergan edi. "Saddi Iskandariy" dostonidagi "haroson" so'zi gapda nafaqat ravish, balki ot, fe'l hamda sifatdosh vazifasini bajarishi yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. www.ziyouz.com kutubxonasi. –B.476.
2. AZ Vaxobovna. [About Some Persian Compound Words in Alisher Navoi's Poem " Saddi Iskandari"](#). (2023). Zien Journal of Social Sciences and Humanities. 18, 46-50.
3. Берёзин Н. Грамматика персидского языка. –Казань, 1963. –С.280-290
4. Жуковский В.А Краткая грамматика персидского языка. –Санкт Петербург. Типография Академии Наук, 1990. –С.30-34.
5. Рубинчик Ю.А. Персидско-русский словарь. –Москва, Русский язык. 1983. –С. 834.
6. Ризаева А.А. Наречия в современном персидском литературном языке (морфологические особенности). –Баку. 1963. –С. 245.
7. Z.Alimova. Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" asaridagi ayrim forscha qo'shma so'zlarning leksik-semantik xususiyatlari haqida. Scientific journal of the Fergana State University. 2023, -P. 639-643.
8. Z.Alimova. Navoiyning "Saddi Iskandariy" asaridagi forscha-tojikcha so'zlarning semantik nihattan guruhlanishi. Scientific journal of the Fergana State University. 2023, -P. 380-383.
9. Z.Alimova. Tillarda o'zlashma so'zlarning mavzuiy jihatdan guruhlanishi. Бюллетень педагогов нового Узбекистана. 2023, 1(4). 124-126.
10. AZ Vaxobovna. [On Some Persian-Tajik Plant Names in Navoy's Epos " Saddi Iskandari"](#). (2023) Texas Journal of Philology, Culture and History 18, 32-37.
11. Umarova N. Alisher Navoiy – badiiy so'z ustasi. –Farg'ona, 2010. –B.10.